

**BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA MAKTAB
PSIXOLOGINING ROLI**

Qodirova Zebo Odilovna
Oqdaryo tumani 19-maktab psixologi

Hozirgi paytda zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Fan, texnika, adabiyot, san'at sport va boshqa bir qancha sohalarning rivojida buni isbotini ko'rishimiz mumkin. Har bir sohaning gullab yashnatgan yetuk mutaxasis kadrlari maktablarda tahlil oladi va o'sha maskanda bilim va dunyoqarashini poydevorini quradi. Maktablarimizda zamon talablari va fan texnika sohasini namunali darajada o'zlashtirayotgan o'quvchilar va aksincha o'zlashtirishda orqada qolayotgan, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham uchrab turadi. Ular bilan ishslashda pedagog va psixologlardan mohirlik, o'z kasbini ustasi bo'lismi va bunday o'quvchilar boshqa o'quvchilarning o'zlashtirishiga o'z ta'sirini o'tkazmasligini ta'minlashni talab etadi.

Maktab psixologlaridan eng avvalo bo'sh o'zlashtirish psixodiagnostikasini o'tkazish talab etiladi. Bunda avvalo bo'sh o'zlashtirishni kelib chiqish sabablari aniqlab olinadi. Bunday sabablarga:

-Bolaning perinatal rivojlanishidagi travmalar (mikrosefaliya, gidrosefaliya, makrosefaliya, turli xil sindromlar, vitaminlar yetishmasligi, cherepnay qon bosimi, turli xil anomaliyalar);

-Bolaning tug'ilish jarayonidagi travmalar (gipaksiya, asfeksiya, bosh miya qisilishi);

-Bolaning tarbiyalanish jarayonidagi travmalar (qo'rqtish, uyaltirish, jazolash, kamsitish, past baho berish, bolaga e'tiborsizlik);

-Genetik sabablar

-Bolaning temperamentidan kelib chiqqan holda (melanxolik temperamentidagi bolalarda tormozlanish reaksiyasining qo'zg'alish reaksiyasidan ustunligi natijasida).

Bunday o'quvchilar bilan ishslashda maktab psixologidan o'quvchining ehtiyojlarini anglab yetishiga ko'maklashish va shu asosda unga to'g'ri motivatsiyalar berib borish talab etiladi hamda bolada o'z-o'ziga ishonch , qo'rquvni yengishiga o'rgatib boriladi. Bunday ishlar bir yoki ikki marta ishslash bilan bartaraf etilib qolmasdan balki bir qancha uzoqroq muddatni talab etadi. Maktab psixologi bo'sh o'zlashtirishning etiologiyasidan kelib chiqqan holda har bir bolaga individual ota ona, o'qituvchi va bola uchun etalon hisoblangan guruh bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda faoliyat olib borishi, bunday faoliyatni olib boorish jarayonida ham bolani o'rtoqlari oldida uyalib qolishi mumkin bo'lgan holatlardan ehtiyoj bo'lishi talab etiladi. Aks holda bolada aggressivlikni shakllanishi holatlari ham yuzaga kelib qolishi, bunday holat esa psixologga bolaning ishonchi pasayib ketishiga olib kelib qolishi mumkin.

Pedagoglardan esa dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanim o'quvchini mustaqil fikrleshsga o'rgatib boorish va uni eshitishi, bolaga sen yaxshi o'qimaysan degan

salbiy munosabat emas, aksincha seni fikring biz uchun muhim degan hissiyotni shakllantirish va bola shaxsini hamisha hurmat qilayotganligini unga anglatib borish talab etiladi. Ayrim holatlarda o'quvchining past o'zlashtirishiga o'qituvchilarning bolaga uning individual holatidan kelib chiqmasdan yondoshishi va bolada o'ziga ishonch va qo'rquv shakllanib qolishiga sabab bo'lish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holatlarda mакtab ma'muriyatidan bolaning o'qituvchisini almashtirish ham yaxshi samara beradi. Mакtab psixolog esa o'qituvchiga, ota onaga hamda mакtab ma'muriyatiga vaziyatdan kelib chiqqan holda tavsiyalar ishlab chiqishi lozim.

Taniqli psixolog Deyl Karnegi “Dunyoda odamlarni nimadir qilishiga undaydigan bir usul bor, bu usul odamni nimadir qilishga majburlash demakdir”-deydi.

Mashhur Amerikalik faylasuf va pedagog D. Dyuining fikriga ko'ra “Inson tabiatiga xos bo'lган eng asosiy intilish – bu ahamiyatli, qadrli bo'lish istagidir” – deydi.

Kichchik mакtab yoshida faoliyatni, xulq-atvorni motivlashtirish o'ziga xos xususiyatga ega. O'qituvchi va ota onalar bolaga to'g'ri munosabat bildirsa ham bunday muammoni yechimi osonlashadi. Bo'sh o'zlashtirish faqatgina kichchik mакtab yoshi davrida emas balki o'smirlik davrida asosan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi. Sababi bunday yoshda bola o'z ichki his tuyg'ularini anglaydai va o'rtoqlari bilan o'zini solishtiradi. Hattoki bu yoshda bolaning kiyadigan kiyimi ham bolaga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bolaga bu davrda tengdoshlaridan biroz oddiyoq kiyim kiyishi, oddiy qo'l telefonidan foydalanib yurishi, o'rtoqlarining mакtab oshxonasidan qanday ovqatlanishi ham o'smir yoshdagи bolada o'ziga nisbatan bahoning pasayishi va agressiyaning kuchayishiga hamda bolada norozi kayfiyat shakllanishiga olib keladi. Bu ham bolaning mакtab darsliklarini past o'zlashtirishiga va negativ kayfiyatni shakllanishiga sabab bo'ladi. Bola o'z qobig'iga o'ralgan holda fikr yurita boshlaydi. Baribir o'qiganimni foydasi yo'q, ota onam menga be'etibor degan his tuyg'u bilan yuradi. Bu davrda esa sinf rahbari, mакtab psixologi, mакtabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rribosarlari to'g'ri targ'ibot va tashfiqot ishlarini olib borishi hamda mакtabda bunday bolalar bilan hamkorlikni to'g'ri tashkil etilishini talab etadi. Mакtab psixolog o'quvchilar bilan individual suhbat jarayonida psixoprofilaktik va psixokorreksion ishlarni olib borishda bolani eshita olishi va uni muammolarini vaqtincha ekanligi va bunday holatda unga nimalar qilishi lozimligini o'ziga reja tuzdirgan holda bartaraf etishga ko'maklashsa, bolada taym menejmentdan qanday foydalanish ko'nikmalari shakllantirib borsa , bolaning qiziqish va qobiliyatlarini to'g'ri baholab unga kasb tanlashga yordam bersa bu davrda muammoni bola bir muncha yengilroq yengib o'tadi.

O'smir yoshda qizlarning o'rtasida past o'zlashtirishning uchrashi yuqoridagi sabablar bilan birgalikda o'zi yoqtirgan kishisining unga e'tibor bermasligi oqibatida va o'zida kechayotgan fiziologik o'zgarishlardan uyalish, o'zining his-tuyg'ularini anglab yetish jarayonida darslarga emas, aksincha o'zining fiziologiyasiga diqqatning haddan ziyot ko'p qaratilishi, bunday o'zgarishlarni qabul qilishga qiynalishi oqibatida kelib chiqadi. Bunday holatlarda psixolog va mакtab hamshirasi bolaning onasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan

holda qiz bolaga to'g'ri tushuntirish ishlarini olib borishi talab etiladi. Ma'lum muddatdan so'ng bunday holatdan chiqib ketiladi.

Genetik sabablardan kelib chiqqan holatdagi past o'zlashtirish holatlari ham ko'p uchrab turadi. Bunday holatlarni ham hozirda yangi pedagogik texnologiyalar va psixokorreksion mashg'ulotlar yordamida mashg'ulotlar tashkil etilib yengillashtirilmoqda.

Idrok va diqqat patalogiyasi holatlarida esa mакtab psixologidan to'g'ri psixodiagnostika qilish va maxsus soha vakillariga yo'naltirish talab etiladi.

Bo'sh o'zlashtirishning kelib chiqmasligiga maktabdagi barcha pedagogik jamoa mas'ulligini unutmasligimiz lozim.

Maktablarda o'quvchilar o'rtasida bo'sh o'zlashtirishni oldini olish va psixokorreksiya qilish ham yurt ravnaqiga, ham bir inson taqdiriga juda ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bir insonning, bir oilaning tinch va farovon yashashiga o'qituvchilar va psixologlar yordam bergen bo'ladi. Farzandlar yurtimiz kelajagi. Yurt kelajagi esa ustoz va murabbiylar qo'lida. Temirchi pir parcha temirdan turli ishlovlar berib buyum yasasa, ustoz-murabbiylar o'zlari ta'lim berayotgan o'quvchilardan keljak kasb egalarini shakllantiradi.